

ABERDIN – ANGUS ZOTINI MAHALLIYLASHTIRISH**Elmurotov Sharofiddin Polvonovich**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali

Qo‘chqorov Abdukarim Nuriddinovich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali

Xoljigitov Asqar Ma‘rifjonovich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali

To‘raqulova Shaxnoza Sarvar qizi

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali

ANNOTATSIYA

2021-yil 17-fevraldagi PQ 4995 sonli “2021-2023-yillarda Surxondaryo viloyati Uzun tumani Bobotog‘ hududini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq xududni bog‘dorchilik va chorvachilik xududiga aylantirish va mavjud resurslardan kelib chiqib go‘shtdor qoramolchilikni rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Shu jihatdan xududga mos sermahsul go‘shdor keskin kontinental ob-havoga moslasha oladigan zotni mahalliy lashtirish maqsadga muvofiqdir. Dunyoda yaratilgan go‘shtdor zotli qoramollar mintaqaviy bir necha guruhlariga bo‘linadi: Angliya-Shotlandiya, Italiya, Amerika, Afrika, Osiyo zotlari va hokazo. Bu mintaqadagi go‘shtdor zotlar o‘zlarining kelib chiqishi, iqlim sharoitiga

moslashishi, mahsuldorlik va biologik xususiyatlari bo'yicha bir-birlaridan keskin farq qiladi. Go'shtdor qoramol zotlari ichida yaratilish davri bo'yicha qadimiy va ko'pchik zotlar uchun naslboshi Angliyaning go'shtdor zotlari hisoblanadi (gereford, shortgorn, aberdin-angus, gallove, hayland va hokazo).

kalit so'zlar: Aberdin-Angus, go'shtdor qoramol, Bobotog', gereford, zot, naslchilik.

АННОТАЦИЯ

В соответствии с постановлением от 17 февраля 2021 года № ПП 4995 "о мерах по социально-экономическому развитию территории Боботог Узунского района Сурхандарьинской области на 2021-2023 годы" целесообразно преобразовать территорию в садоводческую и животноводческую территорию и развивать мясное скотоводство на основе имеющихся ресурсов. В этом отношении целесообразно локализовать породу, в которой продуктивное мясо, подходящее для этого района, может адаптироваться к субконтинентальной погоде. Созданные в мире мясные породы крупного рогатого скота делятся на несколько региональных групп: англо-шотландские, итальянские, американские, африканские, азиатские породы и др. Плотоядные породы в этом регионе резко отличаются друг от друга по происхождению, приспособленности к условиям, продуктивности и биологическим характеристикам. Среди мясных пород крупного рогатого скота древними по времени создания и родоначальниками большинства пород считаются мясные породы Англии (gereford, shortgorn, aberdin-angus, Gallovey, Hayland и др.).

ключевые слова: aberdin-angus, мясной скот, Боботог, gereford, порода, разведение.

ABSTRACT

In accordance with the decision of February 17 PQ 4995 "On measures for the socio-economic development of Bobotog area of Uzun district of Surkhandarya region in 2021-2023" to transform the area into a horticultural and animal husbandry area

and based on available resources it is desirable to develop cattle breeding. In this regard, it is desirable to localize a breed that can adapt to the subcontinental weather, with abundant meat, suitable for the region. Beef cattle created in the world are divided into several regional groups: Anglo-Scottish, Italian, American, African, Asian breeds, etc. Meat breeds in this region differ sharply in terms of their origin, adaptation to conditions, productivity and biological characteristics. Among beef cattle breeds, according to the time of their creation, the most ancient and most common breeds are English beef breeds (Hereford, Shorthorn, Aberdeen-Angus, Galloway, Highland, etc.).

keywords: *Aberdeen-Angus, meat cattle, Bobothog, gereford , breed, breeding.*

Aberdin-angus zoti. Bu qoramollar Shotlandiyaning shimoli-sharqiy qismidagi Aberdin va Angus grafligida mahalliy go'shtdor qoramollarni yaxshilash asosida shakllantirilgan hamda shu ikki graflik nomi bilan atalgan. S.Ya.Dudinning ma'lumotlariga ko'ra, aberdin-angus zoti asosan, Aberdin grafligidagi Bachen tumanida urchitilgan va "bachen" nomi bilan yuritilgan to'qol qoramollardan kelib chiqqan. Xuddi shuningdek, Angus grafligidagi qora tusdagi to'qol mollar aberdin-angus mollarini shakllantirishda muhim rol o'ynagan. Aberdin-angus zotining asoschilari deb Angus grafligidagi Keylor tumanidan Xaf Uotson, Aberdin grafligidagi Tilifur tumanidagi Villiam Mak-Kombi hamda Ballindalax tumanidagi Jorj Makferson-Grant va boshqalar ko'rsatilgan. Zot bilan bo'lgan naslchilik ishlari XVIII asrning oxirlarida boshlangan. 1879-yili Shotlandiyada bu zotni urchitish jamoasi tashkil qilingan. Birinchi naslchilik kitobi 1862-yilda chop etilib, unda 1183 mol (336 buqa va 847 sigir) ro'yxatga olinadi. Naslchilik kitobining chop etilganligiga 100 yil to'lganidagi 87-sonida 6505 qoramol (3149 buqa va 3356 sigir) ro'yxatdan o'tadi. O'tgan 100 yilda naslchilik kitoblarida 384 mingdan oshiq aberdin-angus mollari ro'yxatga olingan. Shu davrda aberdin-angus mollari takomillashtirilgan, mollarning go'shtdorlik shakli yaxshilangan, mahsuldorlik xususiyatlari bilan e'tibor qozongan va boshqa mamlakatlarga tarqalgan. AQShga birinchi bor aberdin-angus mollari (to'rt

bosh buqa) 1873-yili fermer Jorj Grant tomonidan Kanzas shtatiga olib borilgan va mahalliy mollar bilan chatishtirishda foydalanilgan. Sof zotli aberdin-angus podalari 1878-yili tashkil etilgan. 1878-1960 yillar davomida AQSh va Kanadaga 8,5 mingdan ortiq aberdin-angus zotli mollar keltirilgan. AQShda hozirgi vaqda bu zotli mollar go'shtdor qoramol zotlari ichida uchinchi o'rinni egallaydi. Aberdin-angus mollari Janubiy Amerika, Yangi Zelandiya va boshqa mamlakatlarga olib ketilgan. AQShda 1883-yili aberdin-angus zotini urchitish bo'yicha qoramolchilik assotsiatsiyasi tashkil qilingan va 1886-yili zotning birinchi naslchilik kitobi chop etilgan. Mollar tez ko'paytirilgan va 1963-yili 410 mingdan ortiq sof zotli mollar hisobga olingan. 1968-yili naslchilik kitobida ro'yxatga olingan 410962 molning 4652 boshi qizil tusda bo'lgan. Keyingi 30 yil davomida aberdin-angus mollari yanada takomillashib, yirik xildagi guruhlari shakllantirilgan. AQSh seleksiyali aberdin-angus zotining urchitish markazi bo'lib, Ayova shtati hisoblanadi. Shuningdek, ko'p miqdorda Missuri, Illinoys, Minnesota, Indiana, Janubiy Dakota va Kanzas shtatlarida ham urchitilmoqda. Kanadaga aberdin-angus zotli mollar birinchi bor 1876-yili olib borilgan va Ontario viloyatidagi Gvelfe tajriba xo'jaligida joylashtirilgan. 1910-1962-yillar davomida Shotlandiyadan Kanadaga aberdin-angus zotli mollar ko'p bosh sonda keltirilgan va 1906-yili Kanada zavodchilari assotsiatsiyasi tashkil etilgan. 1960-yilga kelib aberdin-angus zotli mollarning soni 196 ming boshga yetkazilgan. Hozirga kelib, ularning soni yanada oshgan va sifati yaxshilangan. Avstraliyaga aberdin-angus mollari 1822-1823-yillari olib borilgan. Lekin bu zot bilan shug'ullanish 1882-yildan so'ng boshlangan. 1919-yili aberdin-angus zotli mollarni urchitish bo'yicha xo'jalik tashkil qilingan va birinchi naslchilik kitobi 1922-yili chop etilgan. 1952-1962-yillar davomida 35 mingdan ortiq aberdin-angus moli ro'yxatga olingan. Hozirgi davrga kelib mollarning soni bir qancha oshgan va mahsuldorlik xususiyatlari yaxshilangan. Argentinada aberdin-angus zotli mollar tez ko'paytirilgan. 1920-yili bu mollardan 1721 boshi hisobga olingan bo'lsa, 1970-yilga kelib 12 milliondan oshib ketgan. Naslchilik kitobi 1901-yili chop etilgan. Go'shtdor qoramollar eng ko'p tarkalgan Buenos-Ayres shtatida 1960-yili 17,5 million mol hisobga olingan bo'lsa, shundan 42,8 foizini

aberdin-angus zotli mollar tashkil qilgan. Yangi Zelandiyaga bu zot birinchi bor 1863-yili Shotlandiyadan olib borilgan. Hozirgi davrga kelib, ularning soni 2 milliondan oshib ketgan. Rossiya Federatsiyasiga aberdin-angus mollari 1932-yili olib kelingan. 1960-1965-yillar davomida keltirilgan 400 bosh mol, asosan, Volgograd viloyati xo‘jaliklariga joylashtirilgan. Hozirga kelib aberdin-angus zotli mollarning mahsuldor podalari turli mintaqalarda tashkil etilgan. Ularning nasldor guruhlarini Volgograd viloyatining “Parij kommunasi” naslchilik zavodida Gmelinskiy, Golubinskiy, Bodyanskiy nomli xo‘jaliklarning naslchilik fermalarida hamda Krasnoyarsk o‘lkasining Labinskiy nomli yilqichilik zavodi va Kabardin-Bolkar Respublikasining Kimchalinskiy nomli xo‘jaligida urchitilmoqda. O‘zbekistonga aberdin-angus zotli buqalar 1955-1957-yillardan boshlab Volgograd viloyatining “Parij kommunasi” xo‘jaligidan olib kelingan. Ular Qoraqalpog‘istonning Qo‘ng‘irot tumaniga, Surxondaryo viloyatining Boysun tumanidagi “Boysun” davlat xo‘jaligida, Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanining Usmon Yusupov nomli xo‘jaligida hamda Jizzax viloyati Baxmal tumanining “Baxmal” xo‘jaliklarida mahalliy zebusimon hamda Qoraqalpog‘iston mollari chatishtirishda foydalanilgan. Duragay mollarning (birinchi-uchinchi avlod) mahsuldor podalari yaratilgan. Ular o‘zlarining vazni va go‘shdorlik xususiyatlari bilan mahalliy mollarga nisbatan 1,5-2 baravar ustun keladi. Mollarning nasldor podalari Surxondaryo viloyati Uzun tumani «Bobotog‘» jamoa xo‘jaligiga Usmon Yusupov nomli xo‘jaliklarda shakllantirilgan. Aberdin-angus zoti go‘shdor qoramollar ichida eng tez yetiluvchan va eng yuqori sifatli go‘sh beradigan zotlar turkumiga kiradi. Ularning asosiy tusi qora va o‘zlari to‘qol, ya‘ni shoxsiz. Hozirgi vaqtda bu zotning qizil tusli podalari ham yaratilgan. Mollarning tanasi mutanosib rivojlangan, muskullar bilan to‘lishgan, ko‘kragi chuqur (sigirlarda 66-67 sm) va keng (45-46 sm), bo‘yi past (yag‘rin balandligi 118-120 sm), oyoqlari kalta, kallasi kichkina, peshonasi tomon qisqarib borgan, bo‘yni keng va qisqa bo‘lib, yelkasi tomon qo‘shilib ketgan, tanasi to‘rt burchak go‘shdorlik shaklda, tananing orqa qismi va ayniqsa, son qismi yuqori sifatli muskullar bilan to‘lishgan. Sonning orqa tomonidagi muskullari sakrash bug‘inigacha to‘lishib, o‘ta go‘shdorlik

shaklini ko'rsatadi. Aberdin-angus zotli buqachalarning tug'ilgandagi vazni 24-27 kg, 8 oyligida 190-210 kg ga yetadi. Sigirlarning vazni 500-550 kg, ayrimlariniki 650-700 kg gacha yetadi, buqalari vazni 800-950 kg. Jadal boqilgan novvoslar vazni 15-16 oyligida 450-465 kg ga to'g'ri keladi. Bo'rdoqi mollarning so'yim chiqimi 65-70 foiz. AQSh va Kanada seleksiyasiga xos bo'lgan aberdin-angus zotli mollar Angliya seleksiyasiga nisbatan yirik hamda sergo'sht. Sigirlarning sut mahsuldorligi 1000-1500 kg. Rossiya federatsiyasida urchitilayotgan aberdin-angus mollari nisbatan kichik. Sigirlarning vazni 450-500 kg. "Parij kommunasi" naslchilik zavodida mahsuldor buqalarning quyidagi qarindosh guruhlari yaratilgan: «Ammonal 10», «Alga43», «Aviator 41», «Magniy D-30», «Kristal D52» va boshqalar. Seleksiya ishlari mollarning vazni va go'sht mahsuldorlik xususiyatlarini oshirishga qaratilgan. Xulosa qilib aytish kerakki, bu zot go'shtdor qoramollar ichida o'zining tez yetiluvchanligini, go'shtning sifati, go'sht tolalarining ingichkaligi, mayinligi, mazaligi va to'yimliliigi bilan alohida ajralib turadi. Sof holda urchitilganda dunyoning turli iqtisodiy-tabiiy mintaqalarida yuqori go'sht mahsuloti beradi. Boshqa zotlar bilan chatishtirilganda duragaylarda go'shtining sifati tezda yaxshilanadi.

"Bobotog'" jamoa xo'jaligiga 1972-yilda 8 bosh Aberdin-Angus zotiga mansub yaxshilovchi buqalar olib kelinib xo'jalikdagi mavjud mahaliy qaromollar to'liq ushbu buqalar bilan qochirtirilgan va 3 avlod olgungacha 1984-yillargacha buqachalar to'liq bichilgan aholi xonadonlarda ham ushbu yillarda 6000 bosh poda yaratilgan xo'jalikga tegishli bo'lgan fermalarda ya'ni Tolto'g'ay, Bobotog', Ma'daniy turmush qishloqlaridagi fermalarda bundan tashqari aholi qo'lidagi qaromollar ham tulari 3000 boshdan ko'p yangi Aberdin-Angus zoti bilan chatishtirilgan podalar yaratildi. Ushbu qaromollar o'zining xususiyatlariga ko'ra sof zotli tengqurlaridan yuqoriroq natija ko'rsatgan. Go'shtining sifati va so'yim chiqimi bo'yicha sof zotli Aberdin-Angus qaromollariga yaqin natija bergan.

Ushbu qaromollar Bobotog' tog' tizmasini keskin noqulay sharoitiga moslashib mahalliy aholining yoqimli zotiga aylangan. Keyingi yillarda yer mulk munosabati o'zgarib borgan davrlarda xo'jalikga tegishli bo'lgan yaylov yer maydonlarining

asosiy qismi Bobotog' o'rmon xo'jaligi tasarrufiga o'tib hayvonlarni oзуqlar areali qisqarib hayvonlar bosh soni kamaygan.

Shunga qaramay 2020-yildagi sanoq natijasiga ko'ra Bobotog' xududidagi jami 9 ta chorvachilik fermer xo'jaliklari bo'lib ushbu fermer xo'jaliklariga jami 2546,9 ga shundan: 138 gektar suvli yer maydoni, 16.4 ga lalmi, 2391.8 ga yaylov yer maydonlari ajratilgan. Ushbu fermer xo'jaliklarida 397 bosh qaromol, 4084 bosh qo'y va echkilar va 155 bosh yilqilar mavjud. Hamda aholi xonadonlarida jami 6775 qoramollar bo'lib shundan sigirlar 3400 bosh, qo'y va echkilar 15912 bosh, 456 bosh yilqilar mavjudligi aniqlandi. Shunda 7172 bosh Aberding angus zoti duragaylari borligi aniqlandi. Xududdagi Bobotog' mahallasida mukammal sharoitga ega bo'lgan sun'iy urug'lantirish punkti tashkil etildi xududagi fermer xo'jaliklari va aholidagi sigirlar hisobidan reja asosida zotning sifat ko'rsatkichlarini ko'tarish hamda urchitishni qon qo'yish metodi asosida zot sifatini yaxshilash ishlari olib borilmoqda. Hozirgi kunda Jizax viloyati Zomin tumanida Rossiya Federatsiyasi bilan hamkorlikda "Jizzax Organik" qo'shma korxonasi tamonidan 10 ming boshdan ko'p sof zotli Abedin-angus zotiga mansub qoramollar urchitilmoqda. Shuni inobatga olib ushbu xo'jalikdan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan buqalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Qon quyish metodi orqali Bobotog' angusi liniyalari yaratilib kelajakda zotning reproduktor xudud sifatida respublikamiz tog'li va cho'l xududlarida rayonlashtirish, aholini sifatli va arzon go'shtga bo'lgan talabini qondirish mumkin bo'lib go'sht mahsulotlari importini kamaytirish va valyutani tejab qolishga ikoniyat yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI(REFERENCES)

- 1. 2021-yil 17-fevraldagi PQ 4995 sonli qarori*
- 2. Nosirov.U.N. Qoramolchilik. Toshkent-2001.*
- 2. Nosirov.U.N, T.U.Nosirov Chorvachilikda klassik va zamonaviy seleksiya usullari. Toshkent-2007.*
- 3. Maqsudov.I, Jo'rayev.J.Y, Amirov.Sh.Q, Chorvachilik asoslari Toshkent-2012*
- 4. Agroolam.uz internet sayti.*